

**ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KO'NIKMANI
SHAKLLANTIRISH**

Maxkamova Nigora Sherzod qizi

ToshDO 'TA'Uning 3-kurs talabasi

nigorausmonova934@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili darslarida ot so'z turkumini o'qitishning samarali usullari, metodik yondashuvlar hamda o'quvchilarda til tushunchalarini ongli ravishda shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Ta'lim jarayonida kommunikativ va interfaol usullardan foydalanish orqali ot so'z turkumini chuqurroq o'zlashtirishga erishish mumkinligi asoslab beriladi.*

Abstract: *This article discusses effective methods of teaching noun phraseology in native language classes, methodological approaches, and ways to consciously form language concepts in students. It is argued that it is possible to achieve a deeper mastery of noun phraseology through the use of communicative and interactive methods in the educational process.*

Kalit so'zlar: *ona tili, ot so'z turkumi, metodika, interfaol usullar, dars, til o'rgatish.*

Keywords: *native language, noun phrase, methodology, interactive methods, lesson, language teaching.*

Kirish

Ona tili ta'limi o'quvchilarning fikrlash madaniyati, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, shuningdek, ularning milliy o'zlikni anglashida muhim o'rin tutadi¹. Bu fan orqali o'quvchilar til tuzilishi, so'zlarning vazifalari va qo'llanish doiralari haqida bilimlarga ega bo'lishadi. Ayniqsa, so'z turkumlari

¹ G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.

bo'limi tilshunoslikning asosiy va nazariy poydevorini tashkil etadi. Shulardan eng birinchi va asosiy o'rganiladigan bo'lim — bu ot so'z turkumidir. Ot so'z turkumi — o'quvchilarga eng erta tanishtiriladigan va til birliklarini ongli o'zlashtirish uchun asos bo'luvchi so'z turkumlaridan biridir. Chunki inson tafakkuri va nutqi bevosita predmetlar bilan bog'liq bo'lib, otlar ana shu predmetlar, mavjudotlar, hodisa va tushunchalarni ifodalovchi vositadir. Otlar tahlil qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida darslarni faqatgina nazariy ma'lumot berish bilan cheklab bo'lmaydi. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va faol ishtirok etishga jalb qilish dars samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, ot so'z turkumini o'rgatishda ham metodik yondashuvlar, interfaol usullar va innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada ot so'z turkumining o'quvchilarga o'zlashtirilishini osonlashtiradigan samarali usullar, darsni bosqichma-bosqich tashkil etish bo'yicha tavsiyalar hamda amaliy mashg'ulotlar orqali til bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatishda o'qituvchi oldida ikki asosiy maqsad turadi:

1. O'quvchilarda otlar haqida nazariy bilimlarni shakllantirish;
2. Ushbu bilimlarni amaliy nutq faoliyatida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faol fikrlashga jalb etish, darsni qiziqarli va samarali tashkil etish uchun interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyida ot so'z turkumini o'rgatishda boshlang'ich sinflarda qo'llash mumkin bo'lgan asosiy interfaol metodlar bayon etiladi:

1. “Aqliy hujum” usuli.

Bu metod orqali o'quvchilarning erkin fikrlashi, faol ishtiroki va ijodkorligi rivojlanadi. Dars avvalida o'quvchilarga “Ot nima?”, “Otlar qanday belgilar bilan ajraladi?” kabi savollar beriladi. O'quvchilar tez-tez fikr bildiradilar,

o'qituvchi esa doskaga ularning javoblarini yozib boradi. Yakunda umumiy tahlil qilinib, asosiy tushunchalar ajratiladi.

2. “Kimni ko‘rdim?” o‘yini

Mazkur o‘yin orqali o‘quvchilar predmetlarni anglatadigan otlarni mantiqiy yo‘l bilan topishga o‘rganadi. O‘qituvchi biror predmetni tasvirlaydi (masalan: “Bu yashil, barglari bor, ko‘pchilik hovlida o‘sadi”). O‘quvchilar javob beradi: “daraxt”. Bu o‘yinni jamoalarga bo‘lib, bellashuv tarzida tashkil etish mumkin.

3. “Klaster tuzish” metodi

Bu usul orqali o‘quvchilar mavzuni grafik tarzda tartiblaydi va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘radi. Dars markaziga “Ot” so‘zi yoziladi. O‘quvchilar undan tarqalayotgan tarmoqlarga quyidagilarni yozadilar: Kim? Nima?, son, egalik, kelishik, gapdagi vazifasi va h.k. Har bir bo‘lim kichik guruhlar tomonidan ishlab chiqiladi.

4. “Muvaffaqiyat zinasi” usuli

O‘quvchilar bosqichma-bosqich savollar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar va o‘z darajalarini baholaydilar. Zinapoya shaklida 5-7 bosqichli savollar tuziladi.

Har bir bosqichda savol murakkablik darajasiga ko‘ra kuchayib boradi. O‘quvchilar bu bosqichlardan o‘tib, bilim darajasini mustahkamlaydi.

5. “Savol-javob” o‘yini

Bu metod orqali o‘quvchilarning fikrlash va to‘g‘ri gap tuzish ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘qituvchi ot so‘zlar ishtirokidagi savollarni beradi: “Nimani sevadi?”, “Kimdan qo‘rqadi?”, “Kimda bor?”

O‘quvchilar to‘liq gap shaklida javob beradilar: “Kitobni sevadi.”, “Bo‘ridan qo‘rqadi.” Har javobda otni ajratib, grammatik shaklini izohlaydilar.

6. “Topib yoz” usuli

Bu usulda o‘quvchilar berilgan ifodalar asosida otlarni topib, ulardan foydalanib gaplar tuzadilar. Rasm yoki qisqa matn asosida o‘quvchilar otlarni aniqlaydi.

Topilgan otlar ishtirokida gaplar tuzadi yoki ularni son, egalik, kelishik shaklida o'zgartiradi. Guruhlar taqdimot qilib, bir-birini baholaydi.

7. “Bitta ot – uchta gap”

Bu ijodiy topshiriq orqali o'quvchilar tanlangan otni turli mazmunda qo'llashni o'rganadilar.

Qo'llanilishi:

O'quvchi “daraxt” otini oladi va u bilan 3 xil mazmunda gap tuzadi:

1. Daraxt ostida dam oldim.
2. U daraxt ekdi.
3. Daraxtlarning bargi to'kildi.

Har bir gapdagi otning roli tahlil qilinadi.

Ona tili darslarida ot so'z turkumini o'qitish – nafaqat tilshunoslik bilimlarini yetkazish, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, tahlil qilish, umumlashtirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim bosqichdir. Bu mavzuni samarali o'rgatish uchun o'qituvchi nazariy bilim bilan bir qatorda metodik yondashuvlarni puxta rejalashtirishi va o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etishi zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, interfaol va kontekstual metodlardan foydalanilgan darslar o'quvchilarda yuqori darajadagi qiziqish va faollik uyg'otadi. Ayniqsa, klaster tuzish, rolli o'yinlar, matn asosida tahlil, guruhlarda ishlash kabi yondashuvlar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydilar, otlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini ongli ravishda o'zlashtiradilar.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron resurslar orqali darslarni boyitish — mavzuni nafaqat tushunarli, balki estetik va interaktiv jihatdan jozibador qiladi. Bu esa o'quvchining eslab qolish darajasini oshirib, darsni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish – o'z ichiga turli metodik vositalarni birlashtiruvchi murakkab, biroq ijodiy jarayondir. Har bir o'qituvchi bu mavzuni o'z pedagogik mahorati, didi va yondashuvi asosida

boyitgan holda o'quvchilar uchun mazmunli va samarali darslar tashkil etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 bet.
2. D.N. Yuldasheva. “O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
3. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
4. G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – T., 2020. – 128 b.